"MAKROIQTISODIYOT"

fanidan kurs ishlarini bajarish bo'yicha

# USLUBIY KO'RSATMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI
"SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI" KAFEDRASI

# "MAKROIQTISODIYOT"
## fanidan kurs ishlarini bajarish bo'yicha

# USLUBIY KO'RSATMA

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **200 000** | **Ijtimoyi soha, iqtisod va huquq** |
| **Ta'lim sohasi:** | **230 000** | **Iqtisod** |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | **5230100** | **Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), sirtqi ta'lim shakli** |

"Durdona" nashriyoti
Buxoro – 2022

**Buxoro Davlat Universiteti, "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi Xodjayeva D.X. 5230100 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), sirtqi ta'lim shakli, bakalavr yo'nalishidagi 3-kurs talabalari uchun "Makroiqtisodiyot" fanidan kurs ishi yozish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. B.: BuxDU, 2022 yil. 18 bet.**

**ANNOTASIYA: Uslubiy ko'rsatmada umumiy qoidalar, kurs ishining mavzusini tanlash va uni bajarish muddatlari, kurs ishining tuzilmasi va mazmuni, kurs ishini rasmiylashtirish va baholash tartibi, mavzular, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'xati va ilovalar ko'rsatilgan.**

***Tuzuvchi:***
***katta o'qituvchi Xodjayeva D.X.***

**TAQRIZCHILAR:**
**Tadjiyeva S.U.**- BuxDU, «Servis sohasi iqtisodiyoti» kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent
**Hamroyev H.R.**, BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi, dotsenti, i.f.n.

**USLUBIY KO'RSATMA:**
**Buxoro Davlat Universiteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasi yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (10- sonli bayonnoma, 29.12.2021 yil).**
**Buxoro Davlat Universiteti "Iqtisodiyot va turizm" fakultet ilmiy kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan(1-sonli bayonnoma, 06.01.2022 yil).**
**Buxoro Davlat Universiteti o'quv-metodik kengash yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan(7- sonli majlis bayonnomasi, 26.02.2022 yil).**

# UMUMIY QOIDALAR

Kurs ishi talabalarning dastlabki ilmiy ishi hisoblanadi. Kurs ishlari talabalar mustaqil ishlarining bir shakli bo'lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun fan to'g'risida aniq tassavurlarga ega bo'lishlari kerak. Talabalar kurs ishining ilmiy, nazariy, g'oyaviy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e'tibor berishlari lozim.

Ishni bajarish jarayonida talabalar kursga oid nazariy bilimlar, maxsus adabiyotlar, huquqiy-normativ aktlar, mavzuga oid yondashuvlardan xabardor ekanligini hamda tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini ko'rsatishadi.

Kurs ishi maqsadlari:

- ➢ Talabalarning "Makroiqtisodiyot" fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashgulotlari jarayonida orttirgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash hamda tizimlashtirish.
- ➢ Kurs ishiga oid muammolarni echishda mustaqil ishlash hamda izlanish olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- ➢ Talabaning nazariy va amaliy bilimlari hamda bu bilimlarni dolzarb iqtisodiy muammolarni echishga tadbiq qila olish qobiliyati darijasini aniqlash.
- ➢ Kurs ishini yozish natijasida talabalar ijodiy fikrlay boshlaydi. Bu esa ularga kelgusidagi ilmiy ishlarini yozishida katta yordam beradi.

Kurs ishi vazifalari:

- ✓ Tanlangan mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini asoslash.
- ✓ Tanlangan mavzuga oid nazariy ma'lumotlar, texnik-normativ hujjatlashtirish, statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish.
- ✓ Mavzuga oid muammoli vaziyatlarga o'z fikrini bildira olish.
- ✓ Tanlangan mavzuni o'rganish va o'tkazilgan tahlillarga asosan xulosalar chiqarish hamda takliflarni shakllantirish.
- ✓ Talab qilingan me'yorlarga asosan kurs ishini rasmiylashtirish.

## KURS ISHINING MAVZUSINI TANLASH VA UNI BAJARISH MUDDATLARI

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda dastlab shu fan bo'yicha professor-o'qituvchining ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab, hozirgi zamon iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqishi lozimdir.

Kurs ishi mavzusini (1-ilova) talaba o'zi ixtiyoriy ravishda tanlaydi va quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak: Tahlil qilinayotgan mavzusini katta qiziqish bilan o'rganishi, o'zining bilim darajasini kengaytirishi va uni kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashi uchun amaliyotga tadbiq qila olish imkoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kurs ishining rahbari sifatida kafedraning tajribali o'qituvchilari kafedra tomonidan tayinlanadi.

Kurs ishini bajarishda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo'shimcha adabiyotlardan ham faydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurs ishi bahorgi semestrda tayyorlanadi. Uni tayyorlashning asosiy muddatlari quyidagicha:

- Mavzu tanlash:
- Adabiyotlarni ko'rib chiqish, reja tuzish va ilmiy rahbar bilan uni tasdiqlash:
- Ilmiy rahbar fikrlarini inobatga olib, matnning asosiy variantini tayyorlash: Kurs ishini tayyorlab moodle platformasiga yuklash, kafedra ilmiy rahbardan taqriz olish
- Ijobiy taqriz yozilgan kurs ishlari himoyaga qo'yiladi

## KURS ISHINING TUZILMASI VA MAZMUNI

Kurs ishi matnini yozish talabadan katta mas'uliyat talab qiladi va ish vaqtning asosiy qismini egallaydi. Uni yozishda talaba o'zining bilimi va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Rejadagi savollar mantiqan bir-birlari bilan bog'langan bo'lishi, har bir keyingi savol o'zidan oldingi savolning mantiqan davomi bo'lib, bir butunni tashkil etishi kerak.



Tanlangan mavzudan qat'iy nazar ishning tuzilmasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

- ❖ Titul varag'i (1-bet) (2-ilovada namuna keltirilgan)
- ❖ Ilmiy rahbarning kurs ishiga taqriz blankasi (2-bet)
- ❖ Mundarija (3-bet) ( 3-ilova)
- ❖ Kirish (4-6 betlar)
- ❖ 1-bob. Mavzu yoki muammoni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari
- ❖ 1.1. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.2. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.3. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.4. birinchi bobning paragrafi(agar zarur hisoblansa)
- ❖ 2-bob. O'rganilayotgan mavzu yoki muammoning tahlili, echimiga oid taklif va chora-tadbirlar
- ❖ 2.1. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.2. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.3. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ Xulosa
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ❖ Tayanch iboralar
- ❖ Ilovalar(agar mavjud bo'lsa)

**Kurs ishining kirish qismida** mavzuni o'rganish va rivojlantirshning asosiy tendenstiyalari ko'rib chiqiladi, joriy vaziyat tahlil qilinadi, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati asoslanadi, asosiy maqsad va vazifalar shakllantiriladi. Bundan tashqari kurs ishining ob'ekti, predmeti, tuzilmasi, izlanish olib boriladigan soha tahlil qilinadi. Kirish qismining hajmi kurs ishi umumiy hajmining 10% dan oshmasligi kerak.

**Kurs ishining birinchi bobi**, odatda, o'rganilayotgan mavzuning nazariy jabhalariga bag'ishlanadi va qolgan materialni yoritishning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan jarayonning tabiati, mazmuni va tarkibiy qismlari ko'rib chikiladi.

Ishni mavzuning ob'ekti va predmetini tavsiflashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shundan so'ng kichik tarixiy sayohat uyushtirib, mavzuning o'rganilganligini aytib o'tish, savollarni ko'rib chiqish va, albatta, o'z nuqtai nazarini yoritish lozim. Bu bobda adabiyotlarga tavsif beriladi, konstepstiya shakllantiriladi, o'rganilayotgan mavzu tahlili

uslubi asoslanadi. Adabiyotlarga tavsif berish jarayonida turli mualliflar fikrlarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, o'z nuqtai nazari asoslanishi kerak. Uslubiy qism axborot yig'ish, uni tahlil qilish va qayta ishlash usullari tavsifini nazarda tutadi. Har bir bob yangi sahifadan boshlab yozilishi kerak, undagi paragraflar esa tugagan joyidan 2 qator tashlab keyingisini yozish tavsiya etiladi.

**Kurs ishining ikkinchi bobida** birinchi bobda yoritilgan nazariy va uslubiy asoslarga tayangan holda shu mavzu bilan chegaralangan sohadagi ishlarning joriy ahvoli tahlil qilinadi. Buning uchun amaldagi normativ aktlar, ilmiy-amaliy konferenstiyalar materiallari, ilmiy ishlar natijalari, statistik ma'lumotlar (ham davlat miqiyosidagi, ham yakka korxonalar miqiyosidagi) qo'llanilishi mumkin. Tahlillarga asos bo'lib hisoblanuvchi materiallar kerakli darajada to'liq va ishonarli bo'lishi kerak, qaysikim ularga asoslanib zahiralarni aniqlash va keyingi faoliyat davomida ishlatish mumkin bo'lsin. Bundan tashqari talaba mavjud faktlarni sanab o'tish bilan cheklanmasdan, ularning afzallik va kamchiliklarini ham aytib o'tishi kerak.

Tahlillar natijalariga asoslanib talaba takliflarni shakllantiradi. Takliflarni shakllantirish o'rganilayotgan mavzuga oid kamchiliklar va imkoniyatlarning to'liq va asoslangan yoritilishini nazarda tutadi.

**Kurs ishining xulosasi** – bu ish davomida topilgan ma'lumotlar sintezidir, ya'ni bunda olib borilgan izlanishlar natijasida qilingan xulosalar mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinadi. Bundan tashqari asosiy xulosalar va izlanish natijalariga asoslanib takliflar bayon qilinadi. Xulosa hajmi kurs ishi hajmining 5-10%ini tashkil etishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** kurs ishida o'z ifodasini topishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarni guruhlashning eng keng tarqalgan usuli – bu alifbo tartibida joylashtirishdir. Kitob va maqolalar muallif familiyasi yoki kitob, maqola nomi (agar muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa) orqali alifbo tartibida joylashtiriladi. Shundan so'ng nashr etilgan joy va sana ko'rsatiladi. Agar jurnal materiali ko'rsatilsa muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili va soni ko'rsatilishi zurur.

**Tayanch iboralar** foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgandan so'ng joylashtiriladi. Unda kurs ishida yoritilgan terminlar, iboralar keltiriladi.

**Ilovalarga** jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar, statistik ma'lumotlar, boshqaruv, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi



hujjatlar joylashtirilishi mumkin. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanishi kerak. Har bir ilovada uning raqamini aks ettiradigan sarlavha bo'lishi kerak (Masalan: 1- ilova). Ilovalar jaylashtirilgan sahifalar betlanadi, ammo kurs ishi hajmiga kirmaydi.

Ilovalar kurs ishining ko'rgazmaliligini oshiradi, unda aks ettirilgan hodisalar tabiati va o'zaro bog'liqligini hamda ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

## KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishining umumiy hajmi (ilovalarsiz) A4 formatidagi 35 betdan 45 betgacha etib belgilangan. Kurs ishi hajmi tanlangan mavzu, ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik va ishning texnik bajarilishi kompyuterda bajariladi.

Agar kurs ishi kompyuterda teriladigan bo'lsa, unda Times New Roman Cur №14 shrifda, qatorlar orasidagi interval 1,5 bo'lishi kerak. Qalin shrift faqatgina sarlavhalarda ishlatilishi mumkin. Kursiv shrift ishlatilishi mumkin emas. Kur ishini kiril alifbosi harflarida yozish mumkin emas.

Iqtiboslar to'g'ri rasmiylashtirilishi zarur, ya'ni muallif nutqi qo'shtirnoq ichida berilishi va manbasi aniq ko'rsatilishi kerak.

## KURS ISHLARINI BAHOLASH TARTIBI

Kurs ishini baholash mezoni talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur.

Kurs ishlari sifat darjasiga qarab tabaqalangan holda baholangani maqsadga muvofiqdir. Reyting tizimi bo'yicha talabaning kurs ishini 5 bahoik tizim asosida baholanadi.

| № | Belgilangan ball | Baholash mezonlari |
|---|---|---|
| 1 | 5<br>"A'lo" | Rejadagi savollarning mazmuni ijodiy yondoshilgan holda yoritilgan bo'lsa, foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlarga snoskalar (ilovalar) berilib, adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan bo'lsa va ish bo'yicha berilagan savollarga aniq va to'liq javob berib, |

| | | |
|---|---|---|
| | | o'zining fikrini erkin bayon etsa bunday tayorlangan ishlarga «a'lo» baho qo'yish mumkin. |
| 2 | 4<br>"Yaxshi" | Agar rejadagi 4-5 savolning 3-4 tasiga to'liq javob yozilgan bo'lib, bittasiga etarlicha javob berilmagan bo'lsa, himoyada talabaning javob berishiga qarab «yaxshi» baho qo'yish mumkin. |
| 3 | 3<br>"Qoniqarli" | Rejadagi 4-5 ta savolning bita yoki ikkitasining mazmuni yoritilib, qolgan savollarga javob berilmagan bo'lsa, to'g'ri yozilgan javoblar ham darslik va kitoblardan ko'chirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yo'q, ilovalar berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo'lsa, ko'rsatilgan kamchiliklar himoyagacha bajarilsa, talabaning javobini hisobga olib bu kabi ishlarni «qoniqarli» baholash mumkin. Agarda talaba yuqoridagi kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf etmasa, kurs ishi «qoniqarsiz» baholanadi. |
| 4 | 2<br>"Qoniqarsiz" | Kurs ishida quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, u taqriz yozish davridayoq «qoniqarsiz» baholanadi:<br>- reja noto'g'ri va umuman qoniqarsiz tuzilgan bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushmasa;<br>- kurs ishi e'tiborsizlik bilan pala-parish bajarilsa;<br>- javoblar asosan o'quv adabiyotlaridan ko'chirilgan bo'lsa;<br>- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'lmasa;<br>- foydalanilgan adabiyotlarga va ma'lumotlarga ilovalar berilmagan bo'lsa;<br>- rejadagi savollar mohiyati biri ikkinchisidan ajratilmagan holda berilsa:<br>- kurs ishini talabaning o'zi xusni xati bilan bajarmagan bo'lsa. |



# 1-ILOVA

## "MAKROIQTISODIYOT" FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI

1.Makroiqtisodiyotning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.
2.Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.
3.Iqtisodiyot tizimda hufiyona iqtisodiyotning o'rni va vazifalari.
4.Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari.
5.O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.
6.O'zbekiston Respublikasining mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xoc xususiytlari.
7.Inflyatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari.
8. Inflyatsiyaga qarshi siyosat
9. Agrobiznes va uning bozor tizimidagi xususiyatlari.
10.Fillips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini.
11.Iste'mol va jamg'arish funktsiyalari.
12.Ratsional kutish nazariyasi.
13.Investitsiya funktsiyasi va omillari.
14.O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati.
15.Yalpi taklif-yalpi taklif modeli
16. Yalpi taklif-yalpi taklif modeli vositasida zamonaviy inqirozlar tahlili.
17. Yalpi taklif-yalpi taklifni rag'batlantirish yo'llari.
18.Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli.
19.Pulga talab. Pul taklifi.
20. Bandlik va ishsizlik, ularning darajalari va turlari.
21.Pul sektorida beqarorlik omillari.
22.Pul bozorida muvozanat.
23.Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli
24.Soliq yuki va uning o'zgarishi oqibatlari.
25.Davlat budjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari.
26.Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning zamonaviy tendentsiyalari va ularni O`zbekistonda qo`llanilishi imkoniyatlari.
27. Byudjet-soliq siyosati.
28.O`zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati.
29.Byudjet-soliq siyosati va uni tarkibi.
30.Byudjet taqchilligi va bartaraf etish yo'llari .
31.Davlat byudjeti profitsitining negativ oqibatlari.

32.Pul-kredit siyosati.
33. O`zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati.
34. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.
35.IS-LM modeli.
36. IS-LM modelida byudjet-soliq va pul-kredit siyosati.
37. Inflyatsiyani targetlash siyosati.
38.Iqtisodiy o`sish omillari va tiplari.
39. Iqtisodiy o`sishning neokeynscha modellari.
40. Iqtisodiy o`sishning neoklassik modellari.
41.Zamonaviy iqtisodiy o`sish modellari.
42.O`zbekistonda barqaror o`sishni ta`minlashning omillari va yo`llari.
43.Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitlarini shakllantirish.
44.O`zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlashtirishning xususiyatlari.
45.Halqaro savdo nazariyalari.
46.Tashqi savdo siyosati.
47. O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati.
48. O`zbekiston Respublikasining ButunjaHon savdo tashkilotiga a`zo bo`lib kirishi masalalari.
49.M.Porter uslubiyatiga ko`ra O`zbekistonning raqobat ustunliklari.
50. O`zbekistonning eksport salohiyati va uning tavsifi.
51.To`lov balansi.
52.Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatining to`lov balansiga ta`siri.
53. O`zbekiston Respublikasi to`lov balansi.
54.Valyuta kursi.
55. O`zbekiston Respublikasi valyuta siyosati.
56.Kichik ochiq iqtisodiyot modeli.
57.Ochiq iqtisodiyotda byudjet-soliq siyosati.
58. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati
59.Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat.
60.IS-LM modeli va byudjet-soliq va davlatning pul-kredit siyosati xarakterini aniqlash.
61. Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili
62. Iste`mol va jamg'arish funktsiyalari
63. Ratsional kutish nazariyasi.
64. O`zbekison Respublikasi investitsiya siyosati.



65. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.
66. O`zbekiston Respublikasi valyuta siyosati.
67. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli.
68. O`zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo`llari.
69. Kapitalning mobilligi darajasini fiskal va monetar siyosatning samaradorligiga ta`siri.
70. Monetar ekspansiyaning qisqa va uzoq muddatdagi oqibatlari.
71. Davlat qarzi o`sishining makroiqtisodiy oqibatlari.
72 Innovatsion tipdagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning xususiyatlari.
73. Pul kredit siyosatining monetaristik nazariyasi va uni O`zbekistonda qo`llanilishi imkoniyatlari.
74. Iqtisodiyotni davlat tomonidan taribga solish nazariyalari evolyutsiyasi.
75. O`zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi.
76. Jamiyatda daromadlarni qayta taqsimlash tamoyillari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta`siri.
77. Inson kapitali va transformatsiyalashgan iqtisodiyotda uni shakllantirish xusustiyatlari.
78. Iqtisodiy xavfsizlik: uni ta`minlashning mezonlari va yo`nalishlari.
79. Xalqaro mehnat taqsimoti: milliy iqtisodiyot uchun imkoniyatlar va tahdidlar.
80. Valyuta kursi omillari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta`siri.
81. Valyuta kursi tartiblarining turlari va ularning makroiqtisodiy samaradorligi.
82.Global iqtisodiy muammolar
83. Bozor iqtisodiyotida davlatning roli. Ijtimoiy tanlov nazariyasi.
84. Pul muomalasi va pulning miqdoriy nazariyasining evolyutsiyasi.
85. Byudjet tizimi: shakllantirish va foydalanish muammolari (O'zbekiston respublikasi misolida).
86. Davlat byudjeti defitsiti va profitsiti. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjet siyosati.
87. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlikni ta'minlash shakllari va usullari.
88. Xalqaro savdo va valyuta kursi.
89. Daromadlar tengsizligi va davlat ijtimoiy siyosati.

90. N.D. Kondratievning “ Uzun to'lqinlar nazariyasi” va uning iqtisodiy dinamika tahlildagi o'rni
91. Makroiqtisodiy muvozanat muammolari.
92. Monopoliyaga qarshi siyosat va uning raqobat muhitini shakllantirishdagi o’rni.
93. Turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari.
94. Zamonaviy iqtisodiyotni tartibga solishning monetar siyosati kontseptsiyasi.
95. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati.
96. Qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozorining elementi sifatida.
97. Fond birjasi, uning roli, asosiy ishtirokchilari va bitimlari.
98. Monetarizm: mazmuni va amal qilish shartlari.
99. Milliy iqtisodiyot: rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari va ularning o'lchovi.
100.Milliy daromad: uni taqsimlash va qayta taqsimlash.
101. Iqtisodiy muvozanatlikning klassik va keynscha nazariyalari tizimlari.
102. J.M.Keyns nazariyasi: sabablari, asosiysi qoidalar va tavsiyalar.
103. Iqtisodiy rivojlanishning davriy nazariyalari.
104. Iqtisodiyotning tsiklik tabiati va barqarorlashtirish siyosatining o’rni.
105. Davlatning moliyaviy tizimi.
106. Ijtimoiy ne’matlar: mohiyati, tasnifi va iqtisodiyotdagi o'rni (O’zbekiston misolida).
107. Bozor iqtisodiyotidagi muvozanat modellari: Keyns va klassik yondashuvlar.
108. Globallashuv va baynalmilallashtirish sharoitida ochiq iqtisodiyot va uning ishlash xususiyatlari.
109. Valyuta kursi va uning makroiqtisodiy dinamikaga ta'siri.
110. Iqtisodiy inqiroz sharoitida mehnat bozori va uning muvozanat muammolari.
111. Zamonaviy mehnat bozori va migratsiya unga ta'sir etuvchi omil sifatida.
112. YaIM iqtisodiy faoliyatning umumlashtirilgan ko'rsatkichi sifatida
113. Xalqaro savdo tashkiloti va xalqaro iqtisodiyotdagi erkin savdo muammolari.
114. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning xususiyatlari.
115.Iqtisodiyot va jahon bozorining globallashuvi. Xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklari va muammolari.



116. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati.
117. Davlat qarzi: mohiyati, sabablari, oqibatlari, boshqaruv muammolari.
118. Kambag’allik iqtisodiy hodisa sifatida.
119. Jahon valyuta tizimi.
120. Jahon bozori: protektsionizm va erkin savdo.

2-ILOVA

## KURS ISHI TITUL VARAG'INI RASMIYLASHTIRISH BO'YICHA NA'MUNA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SIRTQI FAKULTETI

SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI KAFEDRASI

«MAKROIQTISODIYOT» fanidan

**KURS ISHI**

Mavzu: ______________________

______________________

***Bajardi:*** ________ ***guruhi talabasi*** ____________
(imzo) (ismi sharifi)

**Kurs ishi himoya qilingan sana "___" ________ 2021 y.**

**Baho "____"**

***Ilmiy rahbar:*** ________ ____________
(imzo) (ismi sharifi)

***Komissiya a'zolari:*** ________ ____________
(imzo) (ismi sharifi)

________ ____________
(imzo) (ismi sharifi)

Buxoro – 2021 yil



3-ILOVA

## KURS ISHI MAVZUSI REJASINI TUZISH BO'YICHA NA'MUNA

Mavzu: Inflatsiya: mohiyati, uni bartaraf etish imkoniyatlari

MUNDARIJA:

Kirish........................................................................ 4

1-bob. Inflatsiya ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida
1.1. Inflatsiya iqtisodiy kategoriya sifatida. Inflatsiya sabablari....7
1.2. Inflatsiya turlari. ........................................................ 11
1.3. Inflatsiyaning asosiy oqibatlari ..................................15

2-bob. Inflatsiyaga qarshi kurash tajribasi.
2.1. Inflatsiyaga karshi kurashning tarixiy tajribasidan ............ 19
2.2. Rivojlangan mamlakatlar ning Inflatsiyaga karshi kurash tajribasidan..22
2.3. O'zbekistonda Inflatsiyaga karshi kurashning asosiy usullari.26

Xulosa......................................................................... 29

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati........................................ 31

Tayanch iboralar.............................................................. 32

Ilovalar........................................................................ 33

# TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

## Asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

1.Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyo – matbaa uyi ", 2018.-300bet.
2.Mankiw N. Gregory. Macroeconomics. -Tenth Edition. — New York: Worth Publishers, 2018. — 656 p. — ISBN-10: 1319105998б ISBN-13: 978-1319105990.
3.Blanchard Olivier. Macroeconomics. 8th ed. — Pearson, 2020. — 576 p. — ISBN-10: 0134897897, ISBN-13: 978-0134897899.
4.Миропольского Д.Ю., Бродский Т.Г., Макроэкономика..Учебник для вузов.-СПб.:Питер, 2018.-368с.
5.Носова С. Микроэкономика. Макроэкономика. Учебник.- М: - Кнорус, 2014,-468с.
6. Золотарчук В.В., Макроэкономика: Учебник.- М.: ИНФРА-М, 2015.- 537с.
7.Гусейнов Р.М., Семенихина В.А. Макроэкономика. Учебное пособие.- М.: 2014,- 254 с.
8. Воронин А.Ю., Киршин И.А., Макроэкономика – I. Учебное пособие/ - М.: НИЦ Инфра-М, 2013.-110с.
9. Ивасенко А.Г., Никонова Я.И., Макроэкономика. Учебное пособие- Москва: КноРус,2016.-314с.
10.Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. – 192 b.

### Qo`shimcha adabiyotlar

11.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т.: Ўзбекистон, 2014. - 46
12.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи//Ҳалқ сўзи газетаси,2019 йил 21 июнь.
13.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Ҳалқ сўзи газетаси, 2018 йил 29 декабрь.



14.Ахмедов Д.Қ., Ишмухамедов А.Э., Жумаев Қ.Х., Джумаев З.А. Макроиқтисодиёт. - Т.: «Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти», 2004. - 240 б.
15.Марыганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс курс.: учебное пособие- М.: КНОРУС, 2010.-302 с.
16.Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика: Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2009. - 350 с.
17.Самуэльсон, Пол Э. Нордхаус, Д. Вильям Макроэкономика Учебное пособие. М. ООО «И.Д.Вильямс», 2009.-592с.
18.Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Учебник. 7-е изд. - М.: «Дело и Сервис», 2005. - 464 с.
19.Ўзбекистон рақамларда 2017-2018. Ўзбекистон Республикасининг йиллик статистик тўплами-Т..45. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси. 2019.-130б.

### Internet saytlari

20. http:// www.gov.uz- Ўзбекистон Республикаси Ҳукумат портали
21.http:// www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
22. http:// www. mineconomy.uz - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги сайти
23.http:// www.mf.uz - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти
24.http:// www.stat.uz - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси сайти
25.http:// www.soliq.uz - Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитаси сайти.
26.http:// www.cbu.uz - Ўзбекистон Республикаси Марказий банки сайти
27.http:// www.webofscience.com – Ҳалқаро илмий мақолалар платформаси
28.http:// www. sciencedirect.com - Ҳалқаро илмий мақолалар платформаси
29.http:// www.wordbank.org – Жаҳон банки сайти
30. http:// www.scopus.com – Ҳалқаро илмий мақолалар платформаси
31. http://www.ebrd.org – Европа тикланиш ва тараққиёт банки сайти.
32.http:// www.imf.org – Ҳалқаро валюта жамғармаси сайти.

# MUNDARIJA


Umumiy qoidalar .......... 3
Kurs ishining mavzusini tanlash va uni bajarish muddatlari .......... 4
Kurs ishining tuzilmasi va mazmuni .......... 4
Kurs ishini rasmiylashtirish .......... 7
Kurs ishlarini baholash tartibi .......... 7
1-ilova .......... 9
2-ilova .......... 14
3-ilova .......... 15
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati .......... 16

**Buxoro davlat universiteti**
**o'quv-metodik kengash 7-sonli**
**yig'ilishining bayonnomasidan**

**K O' CH I R M A**

**26.02.2022** **Buxoro shahri**

**K U N T A R T I B I:**

**1. Turli masalalar.**

Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi D.X. Xodjayevaning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun "Makroiqtisodiyot" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma tavsiya etish.

**E SH I T I L D I:**

**M.Y. Farmanova (kengash kotibasi) -** Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi D.X. Xodjayevaning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun "Makroiqtisodiyot" deb nomlangan uslubiy ko'rsatmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu metodik qo'llanmaga: BuxMTI Menejment kafedrasi dotsenti dotsent i.f.n. Sh.N. Hayitov va Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi i.f.n. dotsent S.U. Tadjiyevalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Metodik qo'llanma muhokamasi haqidagi Iqtisodiyot va turizm fakulteti (2022-yil 6-yanvar) va Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi (2021-yil 29-dekabr) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

**Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi D.X. Xodjayevaning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun "Makroiqtisodiyot" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma nashrga tavsiya etilsin.

**O'quv-metodik kengash raisi** **R.G'. Jumayev**

**O'quv-metodik kengash kotibasi** **M.Y. Farmanova**

Scanned with CamScanner